



**Saljuqiylar davri madaniyati – O‘zbek xalqi etnik shakllanishi va madaniyati tarixida
o‘g‘uz turkman (saljuqiy) qabilalarining o‘rni**

Usmanov Navruz Asanboy o‘g‘li

JDPU magistratura fakulteti Ijtimoiy-gumanitar

fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix)

yo‘nalisi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: X asr boshlarida tarix sahnasiga chiqib kelgan saljuqiylarning qisqa muddatda yirik davlat tuzishi va ulkan mamlakatlarni adolat bilan boshqarishi masalasi hozirgacha olimlarni bu borada izlanishlar olib borishga undamoqda. Saljuqiylar davlati tepasida oliy hukmdor — sulton (sulton ul-a’zam) turgan. Taxt otadan bolaga meros sifatida o‘tgan. Mulk, yer-suv taqsimlash muhim davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash, amaldorlar ishini nazorat qilish va boshqalar sulton vakolatlari doirasiga kirgan. Uning nomidan xutba o‘qilib tanga zarb etilgan.

Kalit sozlar: Saljuqiylar, Shohmalik, Ulug‘ hoji, horis amiri (amiri horis), salohdor, xos vakil, alomdor, jondor, tashtdor, sarhang, miroxur, devoni istifo(moliya devoni), devoni ishraf (nazorat devoni), devoni arz (harbiy vazirlik)

Аннотация: Сельджуки, вышедшие на историческую арену в начале X века, смогли за короткий промежуток времени основать большое государство и справедливо управлять огромными странами. Во главе государства Сельджуков стоял



верховный правитель – султан (Султан уль-Азам). Трон передавался по наследству от отца к сыну. В компетенцию султана входили распределение имущества, земли и воды, назначение на важные государственные и административные должности, контроль за работой чиновников и т. д. От его имени была произнесена проповедь и отчеканена монета.

Ключевые слова: Сельджуки, Шохмалик, Улуг Хаджи, Хорис Амир (Амир Хорис), Салахдар, Хос Вакиль, Аломдор, Зандор, Таштдар, Сарханг, Мирохур, Дивани Истифа (Департамент финансов), Дивани Ишраф (Департамент контроля), Дивани Арз (военное министерство)

Abstract: The Seljuks, who appeared on the stage of history at the beginning of the 10th century, were able to establish a large state in a short period of time and rule huge countries with justice. At the top of the Seljuk state was the supreme ruler - the Sultan (Sultan ul-Azam). The throne was inherited from father to son. Distribution of property, land and water, appointment to important state and administrative positions, control of officials' work, etc. were within the scope of the sultan's powers. A sermon was recited in his name and a coin was minted.

Key words: Seljuks, Shohmalik, Ulug' Haji, Khoris Amir (Amir Khoris), Salahdar, Khos Vakil, Alomdor, Zandor, Tashtdar, Sarhang, Mirokhur, Diwani Istifa (Department of Finance), Diwani Ishraf (Department of Control), Diwani Arz (military ministry)

Kirish

Saljuqiylarning boshqaruv tizimi somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylarniki singari ikkiga: dargoh va devanlarga bo'lingan. Ulug' hoji, horis amiri (amiri horis), salohdor, xos vakil, alomdor, jondor, tashtdor, sarhang, miroxur dargohdagi asosiy lavozimlar sanalgan. Bosh vazir devoni a'lo — markaziy boshqaruv tepasida turgan. Devoni tug'ro, devoni istifo(moliya devoni), devoni ishraf (nazorat devoni), devoni arz (harbiy vazirlik) kabi



rasmiy devonlar bolgan. Viloyat boshliqlari (voliylar) ham o‘z devonlariga ega bo‘lishgan. Voliylar sulton tomonidan tayinlangan bo‘lib, ular viloyat hayoti bilan bog‘liq barcha sohalar: moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralariga rahbarlik qilgan. Tuman va shahar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham deyarli shunday bo‘lgan¹.

Saljuqiylar davlatida ayniqsa, Buyuk saljuqiylardan Tug‘rulbek, Alp Arslon, Malikshoh, Sanjar davrlarida iqtisodiy va madaniy hayotda katta ko‘tarilish yuz bergan. Hunarmandchilik taraqqiy qilgan: to‘qimachilik, kulollik, zargarlik, oynasozik, temirchilik, ko‘nchilik va gilam to‘qish rivojlangan. Buyuu ipak yo‘li ulkan saltanatning markaziy shaharlari orqali o‘tgan. Sharqiy Yevropa, Vizantiya, Hindiston, Xitoy mamlakatlari bilan savdo aloqalari gurkirab rivojlangan. Malikshoh Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdoni jonlantirish uchun Xuroson va Iroq savdogarlarini boj to‘lovidan ozod qilgan. Kaspiy dengizi orqali Turkistonga neft maxsulotlari keltirilgan. Ichki savdo ham rivojlangan. Mamlakatda sof oltindan zarb etilgan dinor (qizil dinor) joriy etilgan. Bundan tashqari, mahalliy dinor (rukniy) va mis dirhamlar ham bo‘lgan².

Saljuqiylar davlatida ilm-fan va madaniyat rivojlangan. Ayniqsa, Eron, Iroq va Movarounnahrda madaniy yuksalish yuqori bo‘lgan. Nishopur, Isfaxon, Basra, Xiro, Marv, Buxoro, Samarqandda madrasalar bunyod kilingan. Xususan, 1067 yilda buyuk vazir Nizomulmulk qurdirgan Bag‘doddagi Nizomiya madrasasi butun jahonga mashhur bo‘lgan. Nizomulmulk davlatni boshqarish asoslari haqida “Siyosatnoma” asarini yaratgan. Munajjim va riyoziyotchi olim Umar Xayyom loyihasiga ko‘ra, Isfahonda rasatxona qurilgan. U 1079 yilda Malikshoh topshirig‘iga ko‘ra, rasadxonada kuzatuv ishlarini olib borgan va sosoniylarning shamsi taqvi taqvimini isloh etib, Yangi taqvim (“Malikshoh taqvimi yoxud Jalol erasi”) ni tuzgan. Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheroziy, Umar Xayyom fors she’riyatining so‘nmas durdonalarini yaratishgan. Muhamma

¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000. 129.

² Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. Тошкент, “Шарк”. 2010. Б. 202.



Gʻazoliy, Farididdin Attor, Xoja IOsuf Xamadoniy kabi islom ulamolari va sufiylar ijod qilishgan.

Saljuqiylar davlatida riyoziyot va ilmi nujum (Bahovuddin Abubakr Marvaziy, Sharafiddin Tusiy, Abulhasan Ali Marvaziy, Abul Muzaffar Isfizoriy, Zahiriddin Gʻaznaviy), tibbiyot va kimyo (Ismoil Jurjoniy, Faxriddin Roziy), tarix (Zahriddin Nishopuriy, Sadriddin Xusayniy, Anushirvon Koshoniy, Abu Bakr Ravondiy), adabiyot (adib Sobir Termiziy, Nosir Xusrav, Anvari, Asiriddin Axsikatiy, Rafʼiy Marvaziy va boshqalar turli sohalariga oid koʻplab bebaho asarlar yaratilgan.

Bu davrda Nishopur, Marv, Isfahon, Ray, Xamadon kabi poytaxt shaharlar shuningdek, Buxoro, Samarqand, Termizda koʻplab meʼmoriy yodgorliklar qurilgan. Marv gullab yashnagan, u “Marvi Shohijaxon” — “Shaharlar shohi” deb ulugʻlangan. Tarixchi va sayyoh Yoqut Xamaviy Marvda boʻlganida bu yerda 10 ta yirik kutubxona borligini koʻrgan va ulardan foydalangan. Termiz yaqinidagi Paygʻambar orolidagi XI- XII asrlarga oid Zulkifl majmuasi, XI-XVIII asrlarga oid Sulton Saodat meʼmoriy majmui, Jarqoʻrgʻon minorasi (1109), Marvdagi XII asrlarga oid Sulton Sanjar maqbarasi va boshqa meʼmoriy obidalar qurilgan³.

Saljuqiylarning Kuniya sultonligida ham madaniyat taraqqiy etgan. Kichik Osiyoning islomlashish jarayoni kuchayib, tasavvufning mavlaviylik, bektoshiya kabi tariqatlari shakllangan, axiylik (javonmardlik) va qalandarlik kuchaygan. Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro (1240—1320), Xoja Bektosh Vali (1248—1338), Sadriddin Koʻnyoviy, Shahobiddin Suhravardiy singari mashhur mutasavviflar yetishib chiqqan. Koʻniya (Ikoni), Sivas, Qaysariya, Nikeya shaharlari yirik madaniy markazlar hisoblangan. Bu paytda «Oʻgʻuznoma» dostonining yozma varianti shakllangan, latifada Xoʻja Nasriddin (Afandi) obrazi (Turkiston va Anadoluda) yaratilgan⁴.

³ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000. 131.

⁴ Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент: Шарк, 2001. Б. 112..



O'g'uzlarning boshqa qismi saljuqiylar boshchiligida hozirgi Turkmaniston, Orol dengizining shimolida joylashib qoladilar. Yozma manbalarda qayd etilishicha, o'g'uzlarning islom dinini qabul qilganlari mahalliy aholi bilan aralashib ketgan qismi turkmanlar deb atalgan. Saljuqbek dastlab Yangikent yabg'ulari xizmatiga kirgan. Lekin ular bilan murosqa qila olmay, Sirdaryoning quyi chap sohilidagi Jand hokimi bilan yaqinlashadi. Jand hokimi Shohmalik bilan ham kelisha olmagach, Nurota tog'lariga ko'chgan. Somoniy hukmdorlari o'g'uzlarga Nurota dasht yaylovlarida yashashga izn beradi. Nurota o'g'uzlarining bir qismi qolib, qolganlari Amudaryodan o'tib, hozirgi Turkmaniston hududiga borib joylashadilar. Zarafshon vodiysi va Nurota tog' etaklarida o'g'uz saljuqlar avvaldan yashagan. Ular ilk bor VIII-IX asrlarda shu hududga kelib o'rinishganlar.⁵

O'zbek xalqining urug' va qabilalariga bo'linishini o'rganishda V.G.Moshkovaning 1950 yilda yozilgan "O'zbek, qoraqalpoq va turkmanlarning urug' va qabilalari tarkibidagi ba'zi bir umumiy elementlar" degan asari ham ma'lum ahamiyatga ega. Chunki bu kitobda o'zbeklar, qoraqalpoqlar va turkmanlarning etnografiyasi, urf-odatlar, jumladan, urug'-qabilalarning tarkibidagi ko'pgina umumiy belgilari aniqlanib, muallif ko'pgina qimmatli fikrlar bildirgan. Lekin bu ishning katta bir kamchiligi shundan iboratki, muallif o'zbek urug'larining tarixini va ularning farqini aniq bilmasligi natijasida Nurotadagi o'zlarini "turkman-o'zbek" deb atab yuruvchi o'zbeklarni turkmanlar deb hisoblagan va ularda uchrovchi o'zbek urug'larining nomlarini umumiy elementlar qatoriga qo'shib sanagan.

Darhaqiqat, o'zbek, qozoq va qoraqalpoq xalqlarining tarixi, tili, madaniyati va urf-odatlarida umumiy tomonlar bo'lganidek, ularning urug' va qabilalari nomlari orasida ham juda ko'p umumiy va o'xshash tomonlar mavjud. Masalan, o'zbek xalqi tarkibidagi qipchoq, arg'inlar, qo'ng'irotlar va qiyot, do'rmon, nayman, olchin, baxrin, qo'shtamg'ali,

⁵ Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент: Шарк, 2001. Б. 114..



sirg'ali, kenagas, qang'li kabi juda ko'p qabila va urug'lar qozoq va qoraqalpoq xalqlarining tarkibida ham aynan uchraydi¹⁰.

Tarixiy xulosalar shuni ko'rsatadiki, unchalik murakkab etnik tarkibga ega bo'lmagan hudud aholisi asosan xo'jalar va o'zbek-turkmanlardan iborat. Ushbu etnik hamda ijtimoiy qatlamga mansub aholi orasida o'zbek-turkmanlar o'ziga xos alohida etnik tarkibni tashkil etadi. Zero, mazkur etnik komponent o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixida muhim rol o'ynagan, yirik etnik birliklardan biridir.

Mualliflarning fikricha, ko'chish jarayonida Nurota tog'i atroflarida qolib ketgan urug'-jamoalar, keyinchalik, bu yerdagi qator turkiy etnik birliklar bilan aralashib ketadilar. Ular yillar o'tishi bilan o'zlarining ba'zi etnik xususiyatlarini yo'qota boshlaganlar. Shu asosda hududning tabiiy iqlim sharoitiga moslashib, antropologik belgilari (yuz va tana tuzilishi), xo'jalik-madaniy faoliyatida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi va uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zbek xalqi tarkibiga singib ketadilar.¹⁵ Bu omillar o'z navbatida, Kaspiy orti turkmanlari uchun ham xarakterli bo'lib, Movarounnahrda ko'chib borgan guruhlar bu yerdagi mahalliy aholi tarkibiga qo'shilib ketadilar.

XIV-XV asrlarda Sirdaryoning quyi havzasi va Dashtiqipchoqdan Movaraunnaxrga yana bir qancha o'g'iz, saljuq, turkman guruxlari kirib keldilar. Asrlar davomida o'zbeklar bilan yonma-yon yashab kelgan o'g'izlar va saljuq turkmanlarning bir qismi o'z etnik nomlarini unutmagan holda o'troqlashdilar²¹. Zarafshon vodiysidagi o'g'uzlarning bir qismi esa dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Tarixiy ma'lumotlarda keltirilishicha bu o'g'izlarning turar joylari Nurota tog'ida, yozda esa Samarqand sug'dida (Zarafshon vodiysining o'rta qismidagi tumanlarda) bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, o'g'uzlar yozda Samarqand viloyatida yoki unga yaqin yerlarda yashab dehqonchilik qilganlar.

¹⁰Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Тошкент: “Фан”, 1968. 59-60-б.

¹⁵ Мошкова В.Г. Некоторые общие элементы о родоплеменном составе узбеков каракалпаков и туркмен.// Труды института археологии и этнографии. –Т., 1950.С155-159.

²¹.Асқаров А.. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т., “Университет”, 2007, 194-195 бетлар.



Qishda qishlov yerlariga, nurota tog‘lariga borib qishni o‘tkazganlar. Shu o‘rinda qayd etib o‘tish joizki, o‘zbek xalqining yetuk tarixida muhim rol o‘ynagan ayrim etnoslar, masalan, qang‘li bijanak, qarliq va boshqalar turkman xalqining etnik tarkibida turkman xalqi va boshqa qo‘shni xalqlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.⁶

Asrlar davomida o‘g‘uzlar yonma-yon yashab kelganlar. Ularning ma‘lum qismi ko‘chmanchilikda kun kechirib chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Etnik guruxlarda keyingi avlodlari o‘zlarini o‘zbek turkmanlari yoki “nurota turkmanlari” deb atagan. O‘g‘izxon yetmish ikki yilgacha Mo‘g‘ul va tatar o‘z so‘ngari edi. Onlar birlan urushti. Yetmish uch yil bo‘lganda barchasini o‘z og‘ziga baqturub musulmon qildi. Andin so‘ng yurib Xitoyni oldi va Chirchiqni oldi vatagi Tang‘utni oldi. Tang‘utni tojiklar Tibet derdilar. Andin so‘ng borib Qora Xitoyni oldi. Ul ham ulug‘ yurt bo‘lur. Kishisining siroyi xinautek yurt bo‘lur. Hindiston birlan Xitoyning orasinda Muxit tengizining yoqasinda bo‘lur Tang‘itning qish bo‘lganda kun tug‘ishi va yoz bo‘lganda qishliqinda bo‘lur.

Manbalarda keltirilgan ma‘lumotlardan o‘g‘uzlar IX-X asrlarda juda katta kenglikda joylashgan bo‘lgan degan tushuncha xosil bo‘lgan. O‘g‘uzlarning asosiy qismi IX-X asrlarda Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimlarida, Orol dengizining janubi-sharqiy va shimoliy-sharqidagi cho‘llarda joylashgan edi.

XULOSA

Sirdaryo va Orol dengizi yaqinidagi yaylovlarga kelib yashayotgan o‘g‘uzlar bu yerlarda, ulardan oldin yashagan bir necha qabilalarni tobe etib, o‘zlariga qo‘shib oladilar: pecheped (bijanag), qang‘ar (qang‘li) va avdal etnoslari shular jumlasidandir. O‘g‘izlar tarkibiga, shu xududlarda qadimdan yashayotgan sak-masaggetlar qabilalarining turklashgan avlodlari (masalan aslar) ham kirgan bo‘lishi kerak. Kimaklar tarkibidagi baynadur qabilasining katta bir guruhi o‘g‘uzlarga kelib qo‘shilgan. VIII-IX asr davomida Jung‘oriya, Sharqiy Turkiston va Yettisuvda yashovchi qabilalar (qay, sharq, bayot, turki va

⁶ Ўзбекистон ССР тарихи. 5-том. И.Мўминов тахрири остида. Т., 1970, 103-бет.



boshqalar) yokiularning ayrim guruxlari ham Sirdaryo sohillariga ko'chib kelib o'g'uzlarga qo'shilgan. Shunday qilib, o'g'uzlar VIII-IX asrlar davomida Sirdaryo va Old dengizi yaqinidagi hududlarda yirik qabila ittifoq asosida o'g'uz davlati vujudga kelgan. O'g'uz yabg'ularining qarorgohi Yangikent sharqda bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi. // Xalq so'zi. Toshkent, 2017. 16 iyun soni.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yuk. -T.: Shark, 1998.
3. Asqarov A. A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T., Universitet", 2007, 202 bet.
4. Jabborov I. J. O'zbek xalqining etnogenezi. T., "O'qituvchi", 1994.
5. Abulg'ozzi Baxodirxon. "Shajarayi turk". T., "Cho'lpon", 1992.
6. Shoniyozov K.SH.. Qang' davlati va qang'liliklar. (O'zbek xalqining siyosiy va etnik tarixidan). T., "Fan", 1990.
7. Shoniyozov K.SH. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. Toshkent: Sharq, 2001.
8. O'zbekiston SSR tarixi. 5-tom. I.Mo'minov taxriri ostida. T., 1970.
9. Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi. Toshkent, Universitet, 1999.
10. Muhammadjonov. A. R. O'zbekiston tarixi, Toshkent, 1994.
11. Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, 2000.
12. Eshov B. O'zbekiston davlatchilik tarixi. I-qism. – T.: «Ma'rifat», 2009.
13. Yusupov F. O'qituvchi individual tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. Xalq ta'limi №5, 2019.
14. N.Saidaxmedov. Xalq ta'limiga Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish. Xalq ta'limi. 2014.1 № 5 soni
15. Yusupov R.K. Maktabda tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent " O'qituvchi" 2009.